16-son BHS — «Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar»da majburiyat tashkilotda bo'lib o'tgan hodisalardan kelib chiqadigan munosabatlar sifatida talqin qilinib, unda to'lovlar iqtisodiy foyda yoki xizmat ko'rsatish potensialiga ega bo'lgan resurslarning tashkilotdan chiqib ketishi orqali yuzaga kelishi qayd etiladi. Ushbu ta'rif buxgalteriya hisobi ehtiyojlari uchun nisbatan to'liq yondashuvni ifodalaydi. Shu bilan birga, unda «joriy munosabatlar» iborasining qo'llanishi majburiyatlarning muddatiga ko'ra uzoq muddatli turlarini ham qamrab olish zarurligini yanada aniqlashtirishni talab etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, «majburiyat» tushunchasini buxgalteriya hisobi maqsadlarida talqin qilishda uning iqtisodiy mazmuni, hisobda tan olinishi hamda moliyaviy hisobotda aks ettirilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Amaldagi milliy standartlarda berilgan ta'rif majburiyatni o'tgan hodisalar natijasida tashkilot zimmasiga yuklatilgan, iqtisodiy foyda yoki xizmat ko'rsatish potensialiga ega bo'lgan resurslarning kelgusida chiqib ketishiga olib keladigan holat sifatida izohlaydi va bu yondashuv buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillariga mos keladi. Shu bilan birga, majburiyatlarning faqat qisqa muddatli emas, balki uzoq muddatli turlari ham mavjudligi ularni tasniflash va hisobda tan olish mezonlarini yanada aniqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan majburiyatlar tashkilot moliyaviy holatining muhim elementi hisoblanadi. Ularning to'g'ri baholanishi va hisobotda ishonchli aks ettirilishi moliyaviy natijalarni xolis ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois, majburiyatni hisob kategoriyasi sifatida talqin qilishda uning kelib chiqish manbasi emas, balki iqtisodiy oqibati, resurslar chiqimi ehtimoli hamda moliyaviy hisobotga ta'siri asosiy mezon sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

37-sonli «Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar» nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS 37)da «Majburiyat — bu o'tgan davrdagi hodisalardan kelib chiqadigan kompaniyaning joriy qarzdorligi bo'lib, uning so'ndirilishi iqtisodiy nafni o'zida mujassamlantirgan kompaniya resurslarining chiqib ketishiga olib keladi»⁶, — deya ta'rif berilgan. Ushbu ta'rifdagi «joriy qarzdorlik» va «resurslar chiqib ketishi» tushunchalari 16-son BHSda keltirilgan yondashuv bilan mazmunan uyg'un hisoblanadi.

So'nggi o'n yilliklarda budget tashkilotlarida majburiyatlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri tashkil etish masalasi xalqaro ilmiy tadqiqotlarda alohida dolzarb yo'nalish sifatida shakllandi. Davlat moliyasi shaffofligini ta'minlash, budget intizomini mustahkamlash hamda hisobdorlikni kuchaytirish sharoitida majburiyatlarni tan olish, baholash va hisobotda aks ettirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda davlat sektori buxgalteriya hisobi (public sector accounting) budget majburiyatlarini to'liq va ishonchli aks ettirishning asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Jones va Pendlebury⁷ davlat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi nafaqat xarajatlar va to'lovlarni qayd etish, balki mavjud hamda kelgusida yuzaga keladigan majburiyatlarni aniqlash va ularni hisobotda ochib berishga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydilar. Mualliflar budget majburiyatlari va buxgalteriya majburiyatlari o'rtasidagi farqni nazariy jihatdan asoslab, hisob siyosatida ushbu farqni hisobga olish muhimligini ko'rsatadilar.

Chan⁸ davlat buxgalteriyasining nazariy asoslarini tahlil qilib, majburiyatlar hisobini davlat moliyaviy hisobotining markaziy elementi sifatida baholaydi. Uning fikricha, davlat majburiyatlarini to'liq aks ettirmaslik moliyaviy holatni noto'g'ri talqin qilishga va fiskal xavflarni yashirishga olib kelishi mumkin.

5 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

6 Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti «Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar» (AV tomonidan 09.12.2022 y. 3400-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 10.11.2022 y. 61-son buyrug'iga 22-ilova).

7 Jones R., Pendlebury M. Public sector accounting (6th ed.). Pearson Education, 2010. P. 27.

8 Chan J.L. Government accounting: An assessment of theory, purposes and standards. Public Money & Management, 23(1), 13–20, 2003. <https://doi.org/10.1111/1467-9302.00333>



IPSAS standartlari davlat sektorida hisobni yuritishda yagona xalqaro yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Berger⁹ ishlarida baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar hisobini tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodologik asoslar yoritilgan. Muallif budjet tashkilotlarida baholangan majburiyatlarni hisobotda ochib berish davlat moliyasi shaffofligini oshirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Kristians¹⁰ va boshqalar IPSAS standartlarining joriy etilishi davlat moliyaviy axborot tizimlarini modernizatsiya qilishga xizmat qilganini ilmiy jihatdan asoslaydilar. Ularning fikriga ko'ra, majburiyatlarni to'liq tan olish davlat hisobotining ishonchligini oshiradi; bu yondashuv ilmiy adabiyotlarda keng qo'llab-quvvatlanadi.

O.V. Plotnikova majburiyatni "o'tgan davrdagi hodisalardan kelib chiqadigan kompaniyaning joriy qarzdorligi bo'lib, uning so'ndirilishi iqtisodiy nafni o'zida mujassamlashtirgan kompaniya resurslarining chiqib ketishiga olib keladi"¹¹, — deya ta'riflaydi. Ushbu ta'rif moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida keltirilgan mazmun bilan uyg'un bo'lib, unda majburiyatning o'tgan hodisalardan kelib chiqishi hamda iqtisodiy nafning chiqib ketishi bilan bog'liqligi aks etadi.

T.Y. Drujilovskaya¹² buxgalteriya hisobi va hisobotida majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishning dolzarb muammolarini tadqiq etib, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlarda "majburiyat" va "kreditorlik qarzlari" tushunchalarining qo'llanilishini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, ayrim normativ hujjatlarda ushbu tushunchalar bo'yicha aniq ta'riflarning yetarli darajada tizimlashtirilmagani, majburiyatlar hisobini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar ahamiyatini yanada oshiradi. Bu yondashuv buxgalteriya hisobi islohotlarining keyingi bosqichlarida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda majburiyatlar umumiy jihatdan buxgalteriya balansida aktivlar manbai sifatida namoyon bo'lishi, biroq ularning har biri turli iqtisodiy mazmunga, tarkibiy qismlarga hamda boshqa fundamental farqlovchi xususiyatlarga ega ekanligi ta'kidlanadi¹³.

Hozirgi kunda baholangan majburiyatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki ular bajarilish muddati yoki qiymati noaniq bo'lishi mumkin. Baholangan majburiyatlar mavjud javobgarlikning mavjudligi hamda uni bajarish uchun iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishi ehtimoli mavjud bo'lgani sababli majburiyatlar sifatida tan olinadigan, ishonchli baholanishi mumkin bo'lgan majburiyatlar sifatida tavsiflanadi¹⁴. T.Y. Drujilovskaya baholangan majburiyat tushunchasiga izoh berar ekan, ularni korxonaning boshqa subyektlar oldidagi qo'shimcha shartlar asosida yuzaga kelgan yoki kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan javobgarligi bilan bog'laydi.

S.N. Tashnazarov ta'kidlaganidek, R. Xermanson baholanadigan majburiyatlarga asosan mahsulot kafolatlari bilan bog'liq majburiyatlarni kiritadi¹⁵, B. Nidz esa ushbu guruhga to'lanadigan daromad solig'i, mol-mulk solig'i va mehnat ta'tili bo'yicha majburiyatlarni ham qo'shadi. Bu yondashuvlar baholangan majburiyatlar tarkibini kengroq talqin qilish imkonini beradi.

O.V. Jukova, V.S. Kartashov, A.A. Yarish, N.V. Fribus, O.V. Plotnikova, P.A. Aletkin va boshqa mualliflarning ishlarida ham majburiyatlar masalalari keng yoritilgan. Shu bilan birga, bevosita budjet tashkilotlarida majburiyatlar hisobiga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam bo'lib, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish dolzarb hisoblanadi¹⁶.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiyatlari bilan bog'liq buxgalteriya hisobi, ularning tahlili va auditi, shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarni xalqaro miqyosda umume'tirof etilgan "biznes tili" sifatida qaraladigan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimida to'g'ri aks ettirish masalalari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan

9 Müller-Marqués Berger. IPSAS explained: A summary of international public sector accounting standards. Wiley, 2012.

10 Christiaens J., Reyniers B., Rollé C. Impact of IPSAS on reforming governmental financial information systems. International Review of Administrative Sciences, 76(3), 537–554, 2010. <https://doi.org/10.1177/0020852310372449>

11 Плотникова О.В. Теория обязательств в бухгалтерском учете. Бухгалтерский учет и статистика. 2013. vcplotnikov@yandex.ru (Кириллан сана: 05.18.2023)

12 Дружиловская Т.Ю. Учет обязательств организаций: проблемы и пути решения // Бухгалтерский учет в издательстве и полиграфии, 4 (2016), 35–41.

13 Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. (DSc) diss. avtoreferati. 2019 y.

14 Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" (AV tomonidan 09.12.2022 y. 3400-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 10.11.2022 y. 61-son buyrug'iga 22-ilova).

15 Tashnazarov S.N. Korxonalar majburiyatlarini buxgalteriya balansida aks ettirishni takomillashtirish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2016 yil.

16 Жукова О.В. Обеспечение прозрачности представления в бухгалтерской отчетности нефинансовых обязательств коммерческих организаций. Дисс. канд. наук. 2022 г. — 166 с.

Карташов В.С. Формирование и использование оценочных значений в целях повышения прозрачности отчетности экономических субъектов. Дисс. канд. наук. Москва, 2025 г. — 248 с. Ярыш А.А. Методический инструментарий бухгалтерского учета и внутреннего контроля социальных обязательств. Москва, 2020 г. — 206 с. Фрибус Н.В. Бухгалтерский учет и аудит экологических обязательств угледобывающих предприятий. Новосибирск, 2020 г. — 162 с. Плотникова О.В. Концепция конструктивного обязательства в методологии и организации учета инструментов хеджирования. Дисс. докт. наук. Воронеж, 2014 г. — 370 с. Алеткин П.А. Учет и анализ отложенных налоговых активов и обязательств. Автореф. дисс. канд. наук. Казань, 2011 г. — 24 с.



faol o'rganib kelinmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar nazariy va amaliy jihatdan turli yondashuvlarni shakllantirib, ilmiy muhitda keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda mazkur muammolarga bag'ishlangan qator ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etilgani ushbu sohaning rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Bu borada A.J. Tuychiev, S. Maxmudov, S.M. Tashnazarov, F.Sh. Ochilov, A. Kozimjonov¹⁷ va boshqa iqtisodchi olimlarning tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning ilmiy ishlarida joriy va uzoq muddatli majburiyatlarning buxgalteriya hisobiga olinishi, ularni tan olish mezonlari, tasniflash usullari, tahlil qilish hamda auditini amalga oshirishning metodologik jihatlari atroflicha yoritilgan.

Xususan, A.J. Tuychiev o'z ilmiy ishlarida majburiyatlar hisobi va tahlilining nazariy-metodologik masalalariga e'tibor qaratgan bo'lsa, S. Maxmudov aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida majburiyatlar hisobini yuritish va tahlil qilishni takomillashtirish yo'llarini o'rgangan. Shuningdek, S.M. Tashnazarov tomonidan buxgalteriya balansining majburiyatlar qismi mazmunini qayta ko'rib chiqish va uni yangicha yondashuv asosida ifodalash taklifi ilgari surilgan bo'lib, bu orqali majburiyatlarni tasniflashda mavjud noaniqliklarni bartaraf etish hamda moliyaviy hisobot shakllarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash mumkinligi asoslab berilgan.

Umuman olganda, majburiyatga berilgan ta'riflarda uchta asosiy element — qarzдорlikning mavjudligi, uning oldingi iqtisodiy hodisalar oqibati ekanligi hamda so'ndirilishi natijasida iqtisodiy resurslarning chiqib ketishi ehtimoli — izchil aks etadi. Bu holat ta'riflarning to'liqligini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib, majburiyatni korxonada oldingi iqtisodiy hodisalar oqibatida yuzaga keluvchi, so'ndirilishi natijasida iqtisodiy resurslarning chiqib ketishi ehtimoli yuqori bo'lgan joriy va uzoq muddatli qarzдорlik sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ta'rifda "ehtimoli yuqori bo'lgan" iborasining qo'llanilishi nafaqat aniq majburiyatlarga, balki noaniq, ya'ni baholangan majburiyatlarga ham tatbiq etiladi¹⁸.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mavzuni har tomonlama yoritish maqsadida induksiya, deduksiya, tahlil, sintez hamda monografik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida mavjud nazariy yondashuvlar tizimli tahlil qilindi, empirik va nazariy ma'lumotlar umumlashtirildi hamda tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar, milliy va xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari, shuningdek, soha bo'yicha yetakchi olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Ma'lumotlar manbalari sifatida rasmiy statistik axborotlar, me'yoriy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar qiyosiy o'rganildi. Analitik yondashuv orqali majburiyatlarning tasnifi, ularni tan olish mezonlari va baholash usullari tizimlashtirildi. Mantiqiy umumlashtirish usuli yordamida nazariy xulosalar amaliy tavsiyalar bilan boyitildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil asosida milliy amaliyot va xalqaro yondashuvlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Olingan natijalar jadval va izohlar orqali talqin qilinib, ularning amaliy qo'llanilishi imkoniyatlari baholandi. Tadqiqotning ishonchligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlar manbalarining dolzarbligi va mosligi tekshirildi hamda xulosalar izchil mantiqiy asosda shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet tashkilotlarida majburiyatlarni to'g'ri aniqlash, guruhlash va hisobda aks ettirish davlat moliyasini boshqarish samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Majburiyatlarning ilmiy asoslangan tasnifi budjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, majburiyatlarni guruhlash masalasi davlat sektori buxgalteriya hisobi nazariyasining muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi (1-jadval).

Jadvalda keltirilgan tasnifga muvofiq, budjet tashkilotlari majburiyatlarini, avvalo, ularning vujudga kelish manbasiga ko'ra guruhlash maqsadga muvofiqdir. Qonunchilikka asoslangan majburiyatlar davlatning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular budjet tashkilotlari uchun majburiy xarakter kasb etadi. Shartnomaviy majburiyatlar esa budjet ijrosi jarayonida xo'jalik munosabatlarining kengayishi natijasida yuzaga keladi hamda shartnoma intizomi va moliyaviy javobgarlik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega.

17 Tuychiev A.J. Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari. Dissertatsiya. I.f.d. — Toshkent, 2011. Maxmudov S. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqt. fan. nom. diss. avtoref. — Toshkent, 2006. — 22 b. Tashnazarov S.N. Korxonalar majburiyatlarini buxgalteriya balansida aks ettirishni takomillashtirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2016. — № 5. — B. 1–10. (08.00.00; № 10). Ochilov F.Sh. (2022). Majburiyatlar hisobi va auditini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. — T.: — 26 b. Kozimjonov A. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda qarz majburiyatlari bo'yicha xarajatlar hisobini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. — T.: 2022. — 27 b.

18 Jabbarova Ch.A. Majburiyatlar hisobini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. — T.: 2025. — 26 b.



Majburiyatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Moliyaviy majburiyatlar pul mablag'larining chiqimi bilan bog'liq bo'lib, buxgalteriya hisobida kreditorlik qarzi sifatida aks ettiriladi. Nomoliyaviy majburiyatlar esa aktivlarni qabul qilish, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq bo'lib, davlat mulki harakatini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bajarilish muddatiga ko'ra majburiyatlarni qisqa va uzoq muddatli guruhlariga ajratish budjet tashkilotlarining joriy to'lov qobiliyati hamda strategik moliyaviy barqarorligini baholashda muhim hisoblanadi. Qisqa muddatli majburiyatlar asosan joriy xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, budjet ijrosining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Uzoq muddatli majburiyatlar esa davlat dasturlari va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida shakllanadi hamda o'rta va uzoq muddatli budjet rejalashtirish bilan uzviy bog'liqdir (1-jadval).

1-jadval. Budjet tashkilotlari majburiyatlarining guruhlanishi¹⁹

№	Guruhlash belgisi	Majburiyat turi	Qisqacha tavsif	Amaliy misollar
1	Vujudga kelish manbasiga ko'ra	Qonunchilikka asoslangan majburiyatlar	Qonun va normativ-huquqiy hujjatlar asosida yuzaga keladi	Ish haqi, ijtimoiy soliq, stipendiya
		Shartnomaviy majburiyatlar	Fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida vujudga keladi	Tovar yetkazib berish, xizmat ko'rsatish shartnomalari
2	Iqtisodiy mazmuniga ko'ra	Moliyaviy majburiyatlar	Pul to'lash orqali bajariladi	Kreditorlik qarzi, hisob-faktura bo'yicha to'lov
		Nomoliyaviy majburiyatlar	Tovar yoki xizmat shaklida bajariladi	Ijara, aktivlarni qabul qilish
3	Bajarilish muddatiga ko'ra	Qisqa muddatli majburiyatlar	12 oy ichida so'ndiriladi	Kommunal xizmatlar, oylik maosh
		Uzoq muddatli majburiyatlar	12 oydan ortiq muddatga mo'ljallangan	Uzoq muddatli ijara, investitsiya loyihalari
4	Budjet tasnifiga ko'ra	Funksional tasnif	Budjet funksiyalari bo'yicha guruhlanadi	Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat
		Iqtisodiy tasnif	Xarajatlarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlanadi	Ish haqi, tovarlar va xizmatlar
5	Hisobda aks ettirilishiga ko'ra	Haqiqiy (tan olingan) majburiyatlar	Buxgalteriya hisobida aks ettiriladi	To'lanishi lozim bo'lgan qarzar
		Shartli (baholangan) majburiyatlar	Yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lgan majburiyatlar	Sud da'volari, kafolatlar
6	Moliyalashtirish manbaiga ko'ra	Budjet mablag'lari hisobidan	Davlat yoki mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladi	Respublika budjeti xarajatlari
		Budjetdan tashqari manbalar	Nobudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi	Grantlar, maqsadli jamg'armalar

Shuningdek, majburiyatlarni budjet tasnifi asosida guruhlash davlat xarajatlarning funksional yo'nalishlari hamda ularning iqtisodiy mazmunini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholashda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Alohida e'tiborni majburiyatlarning hisobda aks ettirilishiga ko'ra guruhlanishiga qaratish lozim. Haqiqiy (tan olingan) majburiyatlar buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotda aks ettiriladi. Shartli (baholangan) majburiyatlar esa kelgusida yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lgan moliyaviy xavflarni ifodalab, ularni hisobotda ochib berish davlat sektorida shaffoflikni va hisobotning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Nihoyat, majburiyatlarni moliyalashtirish manbaiga ko'ra guruhlash budjet va nobudjet mablag'larining harakatini aniq farqlash imkonini beradi. Bu esa budjet ijrosini samarali nazorat qilish, maqsadli mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, budjet tashkilotlarida majburiyatlarni ma'lum mezonlar asosida guruhlash davlat moliyasi sohasida hisob, tahlil va nazorat tizimini izchil takomillashtirishga xizmat qiladi hamda "natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" amaliyotiga o'tishda muhim va mantiqan asoslangan qadam hisoblanadi. Shu

19 O'rganishlar natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.



munosabat bilan majburiyatlarni tasniflash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish jarayonlarini metodologik jihatdan yanada takomillashtirish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarda ularning ochiqqligi va shaffofligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, budjet tashkilotlarida majburiyatlar hisobini yuritishda yagona uslubiy yondashuvlarni joriy etish, axborot tizimlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish hamda mas'ul xodimlarning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Majburiyatlar bo'yicha ma'lumotlarning o'z vaqtida va ishonchli shakllantirilishi budjet ijrosini samarali rejalashtirish va nazorat qilish imkonini kengaytiradi. Bu esa davlat moliyasi barqarorligini mustahkamlashga va moliyaviy boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni, 11.09.2023. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. <https://lex.uz/docs/2304138>
3. Tashnazarov S.N. Korxonalar majburiyatlarini buxgalteriya balansida aks ettirishni takomillashtirish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2016 yil.
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" (AV tomonidan 09.12.2022 y. 3400-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining 10.11.2022 y. 61-son buyrug'iga 22-ilova).
5. Жукова О.В. Обеспечение прозрачности представления в бухгалтерской отчетности нефинансовых обязательств коммерческих организаций. Дисс. канд. наук. 2022 г. — 166 с.
6. Jabbarova Ch.A. Majburiyatlar hisobini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. — T.: 2025. — 26 b.
7. Christiaens J., Reyniers B., Rollé C. Impact of IPSAS on reforming governmental financial information systems. International Review of Administrative Sciences, 76(3), 537–554, 2010. <https://doi.org/10.1177/0020852310372449>
8. Плотникова О.В. Теория обязательств в бухгалтерском учете. Бухгалтерский учет и статистика. 2013. vcplotnikov@yandex.ru (Кирилган сана: 05.18.2025)
9. Дружиловская Т.Ю. Учет обязательств организаций: проблемы и пути решения // Бухгалтерский учет в издательстве и полиграфии, 4 (2016), 35–41.
10. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. (DSc) diss. avtoreferati. 2019 y.
11. Jones R., Pendlebury M. Public sector accounting (6th ed.). Pearson Education, 2010. P. 27.
12. Chan J.L. Government accounting: An assessment of theory, purposes and standards. Public Money & Management, 23(1), 13–20, 2003. <https://doi.org/10.1111/1467-9302.00333>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
